

CHIG‘ATOY ULUSIDA DAVLAT BOSHQARUVI

*Zokirov Zohidjon Toxirjon o‘g‘li¹
Abdumuxtorov Muslimbek Abdullajon o‘g‘li²,*

Abdumannobova Nazokat Yaxyobek qizi³.

Namangan to‘qimachilik sanoati instituti.

Annotatsiya: Chig‘atoy ulusi boshqaruvi mavzusi O‘rta Osiyo tarixidagi muhim davrni aks ettiradi. Ushbu maqolada Chig‘atoy ulusining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlari, shuningdek, uning rahbarlik strukturalari tahlil qilinadi. Chig‘atoy ulusi, Mo‘g‘ul imperiyasining bir qismi sifatida, o‘ziga xos boshqaruv uslublari va mahalliy an‘analarni birlashtirgan. Maqolada ulusning asosiy rahbarlari, ularning siyosiy strategiyalari va davlatni boshqarishdagi roli muhokama qilinadi. Shuningdek, Chig‘atoy ulusining ijtimoiy qatlamlari, iqtisodiyotidagi savdo va qishloq xo‘jaligi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot Chig‘atoy ulusining tarixi va madaniyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi hamda uning O‘rta Osiyo tarixidagi o‘rnini yoritadi.

Аннотация: Тематика управления Чагатайского улуса отражает важный период истории Центральной Азии. В данной статье будет проанализирована политическая, социальная и экономическая системы Чагатайского улуса, а также его руководящие структуры. Чагатайский улус, являясь частью Монгольской империи, объединил в себе уникальные стили управления и местные традиции. В статье будут обсуждаться основные правители улуса, их политические стратегии и роль в управлении государством. Также будет рассмотрена социальная структура Чагатайского улуса и значение торговли и сельского хозяйства в его экономике. Данное исследование поможет глубже понять историю и культуру Чагатайского улуса, а также осветит его место в истории Центральной Азии.

Annotation: The governance of the Chagatai Khanate reflects an important period in the history of Central Asia. This article will analyze the political, social, and economic systems of the Chagatai Khanate, as well as its leadership structures. As part of the Mongol Empire, the Chagatai Khanate combined distinctive governance styles with local traditions. The article will discuss the key leaders of the khanate, their political strategies, and their roles in state administration. Additionally, it will examine the social stratification within the Chagatai Khanate and the significance of trade and agriculture in its economy. This research aims to provide a deeper understanding of the

history and culture of the Chagatai Khanate while illuminating its place in Central Asian history.

Kalit so‘zlar: Chingizxon, yasoq, noiblar, ulus, Mahmud Tarobiy, bosqoqlar, darug‘achilar.

Kirish

Chingizxon bosib olingan yerlarni o‘g‘illariga mulk sifatida bo‘lib berdi. Bu mulklar ulus¹ deb atalgan. Ulus boshqaruvchisiga xon unvoni berilgan. Saltanat tarkibidagi Janubiy Sibirdan Xorazm va Darbandgacha bo‘lgan yerlar Jo‘jiga, Xitoy va Mo‘g‘uliston taxt vorisi O‘qtoygga, Eron va Xuroson Tuliga bo‘lib berildi. Chig‘atoy ulusiga esa Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkiston berilib, bu davlat XIII asr boshlaridan boshlab XIV asrning 40-yillarigacha bu o‘kalarni boshqargan. Mog‘ullar kata va madaniy viloyatlarni idora qilishda tajribaga emas edilar. Bundan tashqari bunday viloyatlarni boshqara oladigan ma‘murlar ham yo‘q edi².

Mo‘g‘uliston va unga qo‘shni yerlarda yashovchi boshqa ayrim ko‘chmanchi xalqlardan farqli o‘laroq mo‘g‘ullar davlatchilik an‘analariga ega emas edilar. Ushbu haqida xususan A. S. Sagdullaev, B. Eshov, N. I. Toshev kabi bir qator mahalliy olimlar ham o‘z tadqiqotlarida ta‘kidlagan.

Asosiy qism

Mo‘g‘ul imperiyasining uluslar va qanotlarga bo‘linishi, o‘nlik sistemasi, oliy hokimiyat konsepsiyasi, taxt almashish tartibi va boshqa ko‘plab davlatchilik institutlari mo‘g‘ullardan avval o‘tgan ko‘chmanchi davlatlar, asosan Turk xoqonligiga taqaladi. Bu bilim va an‘analar Chingizxon mo‘g‘ullarigacha bir necha yo‘llar bilan yetib kelgan. Xususan *Yasoq* qoidalari ham shular jumlasidandir. Ikkinchidan, mo‘g‘ullar ko‘chmanchilik bilan hayot kechiruvchi xalq bo‘lgani tufayli davlat boshqaruvida rejasiz edi. Shu boisdan, xonlar dastavval ulus qo‘l ostidagi hududlarni *noiblar* yordamida boshqargan. Buni Movaraunnahrni boshqarish ishlari mahalliy hukmdorlar va ayniqsa mahalliy boy zodagonlarga berilishida ham kuzatamiz. Misol uchun, birinchi bo‘lib Chig‘atoy ulusi hududini boshqarish xorazmlik savdogar Mahmud Yalavochga keyinchalik ham uning avlodiga topshirildi. Ular xonning noibi

¹ Ulus (mo‘g‘ulcha – xalq, davlat, odamlar)-1)Mo‘g‘ullar davlati shakllanish davrida muayyan bir no‘yota tobe bo‘lib, unga qarashli yerlarda ko‘chmanchilik bilan hayot kechiruvchi katta-kichik oilalar guruhi; 2) Chingizxon tuzgan ilk mo‘g‘ul davlati; 3)mo‘g‘ullar istilosi davrida bosib olingan hududlardan Chingizxon farzandlariga bo‘lib bergan mulk(udel)lar(masalan, Jo‘ji ulusi, Chig‘atoy ulusi va boshqalar); 4) XIII asrning 2-yarmidan bu uluslar mustqil davlatlarga aylanib, nomigagina saltanat hukmdori-ulug‘qoonga bo‘ysunganlar. XV-XVII asr oxirilarida ulus Mo‘g‘ulistonda yirik yer mulk bo‘lgan va musulmon adabiyotlarida Chingiziylar davlatining atalishi bo‘lgan. Mo‘g‘uliston manjurlar tomonidan bosib olingach, mamlakat aymoqlar va xoshunlarga ajratilgan, Natijada ulus atamasi mulk ma‘nosida qo‘llanilmaydigan bo‘lgan va asta sekin “xalq” ma‘nosini anglata boshlagan. Hozirgi vaqtda ulus atamasi “davlat” sinonimi sifatida ishlatiladi; 5) buriatlar va qalmiqlar Rossiya tarkbiga kiritilgan so‘ng ulus atamasi Oktabr to‘ntarishigicha feodal mulk, so‘ngra ma‘muriy birlik ma‘nosini saqlab qolgan; / O‘zbekiston milliy ensiklopeiyasi.2005.

²Sagdullaev A. , Mavlonov U. O‘zbekiston davlat boshqaruvi tarixi (Qadimgi davrlardan XIX asrning o‘rtalariga qadar). O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: “Akademiya”, 2006. – B. 90.

sifatida faoliyat olib borishdi. Noib ko‘rinishida ular Xo‘janddagi qarorgohidan turib ulus miqyosida soliqlarni to‘plash hamda Xoqon huzuriga yetkazish va aholini itoatda ushlab turish kabi ma’suliyat yuklatilgan edi. Bunda noib Chig‘atoy ulusi xonlari oldida hisobot berishlari shart emas edi. Huddi shunday Buxoroda ham mahalliy zodagonlar va din ulamolari, sadrlar mamlakatdagi boshqaruvni qo‘lga olgan edilar³. Mahalliy boy zodagonlar qatlamiga tayangan holda mo‘gul xonlari O‘rta Osiyodagi viloyat va hududlarni idora qiladilar. Ishonchli kishilarga mahsus hujjat payzalar⁴ berganlar. Alohida yorliqlarga ko‘ra mahalliy amaldorlar, savdogarlar, ruhoniylar, xon xonadoni vakillariga o‘sha yerlardan o‘tib qolsa, turar joy berganlar hamda ularni oziq-ovqat va ot-ulov bilan ta‘minlaganlar. Manbalarda Chig‘atoyning xususan Mahmud Yalavochdan qutulish hoxishi bo‘lgani haqida ishoralar bor va u bu maqsadiga 1238-yilgi Mahmud Tarobiy qo‘zg‘oloni orqali erishgan desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki Yalavoch qo‘zg‘alonga homiylikda yoki bila turib keskin chora ko‘rmaganlikda ayblanib O‘qtoy Xoqonning ijozatisiz noiblikdan ozod etiladi⁵. Mahmud Tarobiy boshchiligidagi qo‘zg‘olon istibdodga asoslangan tuzumga qarshi xalqning kurashga tayyor ekanligi va o‘z ona Vatanini himoya qilishini ko‘rsatdi. Qo‘zg‘olonidan keyin soliq va o‘lponlar tartibga keltirildi. Xalqning hukumatga qarshi qo‘zg‘oloniga yo‘l qo‘ygan va uni bostirishda sustkashlik ko‘rsatgan Mahmud Yalavoch amalidan chetlashtirildi. Movarounnahr noibi lavozimiga Mahmud Yalavochning o‘g‘li Mas‘udbek tayinlandi. Yalavoch Qora-qurumga ketishga majbur bo‘ladi. Hoqon esa iltifot ila kutib oladi va uni Pekinga gubernator etib tayinlaydi. Yalavoch u yerda umrining oxiriga qadar (1254 yil) faoliyatini yurgazadi. Ma’sudbek bir necha *bosqoqlar*⁶ va *darug‘achilar*⁷ boshliq qo‘shinga hamda mahalliy amirlarga

³ Bekmuradov Sandjar Tursunmamatovich Chig‘atoy ulusida davlat boshqaruvni oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor VOLUME 1 | SPECIAL ISSUE 2 ISSN 2181-1784 SJIF 2021: 5. 423 255b

⁴ Payza-(xitoycha-mo‘g‘ulcha)yorliq. Chingizxon buyrug‘iga binoan joriy qilingan bo‘lib, oltin, kumush, cho‘yan, jez hamda yog‘och taxtachalarga bitilgan. Mo‘g‘ul xonlari tomonidan mo‘g‘ullar hukmronligiga tobe mamlakatlarga tayinlangan noiblar, shuningdek, chopar va elchilarga, ularning lavozimlariga qarab beriladigan yorliq, buyruq. Noiblarga hamda elchilarga beriladigan oltin. Payzaga xonning buyruklari yozilgan va ular noib yoki elchiga cheksiz vakolat huquqini bergan. Payza egasi istagan narsani talab qilishga haqli bo‘lgan, uning talabi so‘zsiz bajarilgan. Maqalliy hukumat vakillari payza bor ma‘murga ot, yo‘l ko‘rsatuvchi kishi, oziq-ovqat va boshqa xizmatlarni ko‘rsatishga mas‘ul bo‘lganlar. Payzaning darajasiga qarab unga qush yoki hayvon rasmi solingan. Eng oliy darajali payza yuziga yo‘lbars surati tushirilgan. Bu turdagi payza hukmronlik va daxlsizlik belgisi bo‘lib xizmat qilgan. Payzaga ega shaxslar talanish yoki jazolanishdan mustasno edilar; O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.2005.

⁵ Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 253.

⁶ Bosqoq (turkiycha — bosuvchi, ezuvchi) — mo‘g‘ul xoni tomonidan qaram mamlakatlarga maxsus yorliq bilan yuborilgan amaldor, noib. Bosqoq o‘z ma‘muriy mavqeiga kura bek va lashkarboshidan yuqori turgan. Bosqoqqa maxsus harbiy otryad va turli mayda amaldorlar birlashtirilgan bulib, uning vazifasi mahalliy hokimiyat faoliyatini nazorat qilish, soliq va o‘lpon yig‘ish, tub aholini ro‘yxatga olishdan iborat bo‘lgan. Bosqoqlar soliq va o‘lpon yig‘ishda benihoyat shafqatsizlik qilganlari boisidan mustamlaka mamlakatlarda tez-tez qo‘zg‘olonlar sodir bo‘lib turgan. Bosqoqlik XIII asrning o‘rtalarida Eron va Rusda ham joriy etilgan. Mo‘g‘ul xonlari XIV asrning boshlarida mazlum xalqlar kurashining kuchayishi munosabati bilan Bosqoqlikni bekor qilib, soliq va o‘lpon yig‘ishni mahalliy hokimiyatga topshirishga majbur bo‘lishgan/ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.2005.

⁷ Dorug‘a, daruxachi, dorug‘achi (mo‘g‘ulcha — nazoratchi, shahar boshlig‘i) — 1) Mo‘g‘ullar davlatish mahalliy hokimlar huzuridagi ulug‘ qoon vakili, noibi. Dorug‘a zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan: aholini ro‘yxatga olish; mahalliy xalqdan qo‘shin to‘plash; pochta aloqalarini yo‘lga qo‘yish; soliqlar yig‘ish; to‘plangan soliq-to‘lovlarni ulug‘

tayanib otasining ishlari va siyosatini 1289-yilga qadar davom ettiradi. Uchinchi, Chigʻatoy ulusining siyosiy boshqaruviga Joʻji ulusi vakillari shuningdek, Tulu xonadoni vakillari muntazam aralashib turar edi. Noiblarning markazga tashib ketayotgan katta miqdordagi soliqlardan maʼlum foizigagina qanoat qilishga majbur boʻlgan chigʻatoyliklarga bu xol yoqmas edi. Bundan tashqari Botu 1236-1241 yillarda Sharqiy Yevropaga yurishlarni amalga oshirib boʻlgʻusi Oltin Oʻrdaga zamin yaratayotgani alohida ahamiyat kasb etardi. Ayniqsa, 1248-yilda Xoqon Guyukxonning vafoti va undan soʻng katta sarxadga ega sulolani boshqarishga tajribali, taxtga loyiq davogar yoʻqligi Oʻqtoy xonadonini xavotirga solib qoʻydi. Yana bir tarafdin, Botu va Guyukxon oʻrtasida azaldin xusumat va oʻchmas adovat hissi mavjud edi. Bu dushmanlik hissi Guyukxonning avlodlariga ham meros boʻlib oʻtgan edi. Umuman olganda, Moʻgʻullar imperiyasida umumsiyosiy vaziyat oʻta murakkab ahvolda boʻlib, unda hali-hanuz bosqinchilik urushlari olib borilayotgan edi⁸. XIII asrning oʻrtalaridan boshlab moʻgʻullar saltanatida siyosiy kurash keskinlashdi. 1251-yili ulugʻ xon lavozimiga saylangan Munqa (1251-1259yillar) Chigʻatoy ulusini tugatib Botuxon bilan uning hududini boʻlib oladi. Chigʻatoyning nevarasi Olgʻuxon (1261-1266-yillar) Oltin Oʻrdaga qarshi kurashib, Chigʻatoy ulusini qayta tiklashga erishadi.

XIII asrning 60-70-yillariga qadar rasman saqlanib qolgan moʻgʻullar saltanati parchalandi. Har bir ulus mustaqil boʻlib, oʻlja olish uchun qoʻshnilariga qarshi yurishlar olib borgan. Oʻzaro urushlarda Chigʻatoy ulusi koʻp marta talanadi. Movarounnahr hukmdorlari qoʻshni uluslarning hujumini toʻxtatish uchun markaziy hokimiyatni kuchaytirib, xoʻjalikni rivojlantirishga harakat qilgan. Movarounnahr noibi Masʻudbek xoʻjalikni jonlantirish, qoʻshni mamlakatlar bilan savdo-sotiq va madaniy aloqalarni rivojlantirishga katta hissa qoʻshdi. Masʻudbekning tashabbusi bilan 1271-yili pul (moliyaviy) islohoti oʻtkazildi. Unga koʻra, har qanday kishi zarbxonalarda oʻziga kerakli tangalarni bir xil hajm, qiymat, vaznda zarb etishi mumkin edi. 16 ta yirik shahar va viloyatlarda bir xil vazn va yuqori qiymatga ega sof kumush tangalar zarb etilib, muomalaga kiritildi. Uning tashabbusi bilan 1273-1276-yillarda Buxoroni qayta tiklash ishlari amalga oshirildi. Chigʻatoy xoni Duvaxon (1291-1306-yillar) davrida Andijon shahriga asos solindi.

XV asrning boshlarida moʻgʻul hukmron doiralarida oʻtroqlashuv va mahalliy aholi madaniyatini qabul qilishga boʻlgan intilish kuchayadi. Shunday xonlardan biri boʻlgan Kebekxon (1309, 1318-1326-yillar) oʻz qarorgohini Movarounnahrda

qoon saroyiga yetkazish; 2) Temuriylar va shayboniylar davrida viloyat, shahar hokimi. Dorugʻaning vazifasiga shaharni idora qilish, aholi roʻyxatini olish va uni hisob-kitob qilib borish, soliq undirish kabilar kirgan; 3) Buxoro xonligida dorugʻa shaharning harbiy komendanti. / Oʻzbekiston milliy ensiklopeiyasi.2005.

⁸ Bekmuradov Sandjar Tursunmamatovich. Chigʻatoy ulusida ilk davlat boshqaruvi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor VOLUME 1 | SPECIAL ISSUE 2 ISSN 2181-1784 SJIF 2021: 5. 423 256 b

ko‘chiradi. Nasaf shahri yonida qurilgan saroy o‘rnida yangi Qarshi shahri yuzaga keldi. Kebekxon davlatni idora etish, iqtisodiy hayotni tartibga solish maqsadida ma‘muriy va moliyaviy islohot o‘tkazdi. Ma‘muriy islohotga ko‘ra, mahalliy tuzilmalar tumanlarga, viloyatlarga aylantirildi. Xulagiylar va Oltin O‘rda tangalari namunasida 2 xil pul: yirik kumush tanga – «dinator» (8 gr. atroflarida) va mayda kumush tanga – «dirham» (6 dirham bir dinor) pullar zarb etildi. Kebekxoning ukasi Oloviddin Tarmashirin (1326-133- yillar) o‘troq hayot an‘analarini qattiq turib himoya qiladi. U islom dinini qabul qilib, islom dinini Chig‘atoy ulusining rasmiy diniga aylantiradi. Tarmashirin siyosatidan norozi bo‘lgan mo‘g‘ul zodagonlari isyon ko‘tarib, 1334-yilda uni o‘ldirishadi. Tarmashirindan so‘ng hukmdorlar tez-tez almashib turdi. Bu davrda mahalliy qabilalar hokimiyati yanada kuchayib bordi.

XIV asrning 40-yillariga kelib ulusda yuz bergan siyosiy inqirozning yanada keskinlashuvi sababli mamlakatda bo‘linish yuz berdi. Yettisuv, Farg‘onaning bir qismi, Sharqiy Turkiston Mo‘g‘uliston (Sharqiy) ulusi va Movarounnahr (G‘arbiy) ulusiga bo‘lindi. Movarounnahrda mo‘g‘ul zodagonlarining nufuzi pasayishi sababli, hokimiyat uchun kurash keskinlashdi. Xon xonadoni vakillarining qudratli mahalliy amirlarni itoatda tutib turishi qiyinlashdi. Chig‘atoy sulolasining so‘nggi vakillaridan biri Qozonxon (1343-1346) markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harakat qildi. Lekin bu siyosat viloyat amirlarining keskin qarshiligiga duch keladi. Qozag‘on boshchiligida mahalliy amirlar fitna uyushtirishi natijasida xon o‘ldirildi. Hokimiyatni qo‘lga olgan amir Qozag‘on davrida Movarounnahr bir necha yarim mustaqil qismlarga bo‘linib ketdi. Mamlakatda siyosiy tarqoqlik avj olib, o‘zaro nizolar yanada kuchaydi⁹.

Xulosa

Chingizxon o‘zi yaratgan ko‘plab imperiyani boshqarishdagi tartib-qoidalari farzandalari davrida qattiq rioya etildi. Biroq ularning vafotidan ko‘p ham o‘tmay imperiyada bosh-bashdoqlik sezildi. Bunda aynan Botu bilan Tulu va O‘qtoy bilan Chig‘atoy xonadonlari o‘zaro hamkorlikda bir-birlariga qarshi chiqa boshladilar. Bu esa tomonlarning ko‘proq yutuqlarga ega bo‘lishi ilinjida kerak bo‘lsa avlodlar qadriyatidan ham voz kechish holatiga va uluslarning ichki hayotiga bilvosita aloqador bo‘lgan boshqaruvini amalga oshirish tomon zamin tayyorladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Sagdullaev A. , Mavlonov U. O‘zbekiston davlat boshqaruvi tarixi (Qadimgi davrlardan XIX asrning o‘rtalariga qadar). O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: “Akademia”, 2006. – B. 90.

⁹ Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – B. 92-93b.

2. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 253.
3. Bekmuradov Sandjar Tursunmamatovich Chig‘atoy ulusida davlat boshqaruvi oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor VOLUME 1 | SPECIAL ISSUE 2 ISSN 2181-1784 SJIF 2021: 5. 423 255b
4. Бартольд В.В. Работы по истории и филологии тюрских и монгольских народов. – М.: 2002. – 757с
5. Бартольд В.В. Очерк истории Семиречья. – М.: 1963. –190с.
6. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-та’рих. – Ташкент: Узбекистан, 2006. – с.346-347
7. Давидович Е. А. Денежное хозяйство Средней Азии после монгольского завоевания и реформа Масуд-бека – М.: Наука, 1972. – 97с.
8. Егоров В. Л. Историческая география Золотой Орды в XIII –XIV веках. – М.: Наука, 1985. – С. 111 –112.
9. Владимирцов Б.Я.Общественный строй монголов. –Ленинград: 1934. – 233с.
10. Weese.D, Devin A. Islamization and Native Religion in the Golden Horde. – P.: Penn State Press, –1994 p3.